

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOV NE‘MAT XOLYIGITOVICH

**O‘QUV DALA AMALIYOTLARIDA EKSTREMAL
VA SPORT TURIZMIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI
(oliy ta‘lim muassasalarining 1-2-bosqich talabalari misolida)**

13.00.01–Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Karimov Ne‘mat Xolyigitovich

O‘quv dala amaliyotlarida ekstremal va sport turizmidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari (oliy ta‘lim muassasalarining 1-bosqich talabalari misolida).....3

Каримов Неъмат Холйигитович

Педагогические условия использования экстремального и спортивного туризма в учебной полевой практике (на примере студентов 1-го курса высших учебных заведений).....23

Karimov Ne‘mat Xolyigitovich

Pedagogical conditions for the use of extreme and sports tourism in educational field practices (based on the example of first-year university students)43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published.....47

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOV NE‘MAT XOLYIGITOVICH

**O‘QUV DALA AMALIYOTLARIDA EKSTREMAL
VA SPORT TURIZMIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI
(oliy ta‘lim muassasalarining 1-2-bosqich talabalari misolida)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Attestatsiya Komissiyasida B2022.4.PhD/Ped3985 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.jtsu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raxmatova Xayrixon Ashuraliyevna
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich
biologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kochkarov Atabek Axmatvayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01.raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 25-aprel soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@usdjtsu.uz, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti E bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0150 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil 18-martdagi 14-raqamli reyestr bayonnomasi).

R.M.Matkarimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.Sh.Gaziyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent

M.S.Olimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda sport va ekstremal turizm turi eng ommabop, hozirda rivojlanayotgan va qiziqish bildirilayotgan sohalardan biri bo'lib, bu sohadagi yetakchi davlatlar AQSH, Fransiya, Italiya, Germaniya davlatlari hisoblanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning rasmiy hujjatida “Barqaror rivojlanish” integral tushunchasi taqdim etilgan bo'lib, ushbu tushuncha turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarni birgalikda ishlab chiqish, tajriba almashish maqsadida xalqaro tashkilotlari bilan amaliy aloqalar o'rnatish, o'quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanishni rivojlantirish jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jahonda turizmni rivojlantirish, tashqi va ichki bozorlarda marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, turizmning ekstremal sport turlaridan foydalanish keng targ'ib qilinmoqda. Yoshlarning jismoniy madaniyatini shakllantirish, ekstremal turizmning ilmiy va metodologik asoslarini ochib berishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda jahon mamlakatlarida sportning ekstremal va dam olish turini rivojlantirish borasida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo'lsa-da, zamonaviy talablar va qo'llab-quvvatlashni talab qiluvchi yana qator yo'nalishlar mavjud bo'lib, paraplanizm, deltaplanerizm, aeronavtika, kichik aviatsiya, tog' turizmi, veloturizm, skayranning, mototurizm, avtoturizm kabilar shular jumlasidandir. Ammo bu boradagi tahlillar ekstremal turizm yo'nalishida tabiatni, geotizimlarni o'rganish, tabiatning ekstremal sharoitlarida inson guruhini boshqara olish, ekstremal turizmni rivojlantirish istiqbollari, tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog'liq holda shakllantirishning dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Respublikamizda turizm va sport sohasini rivojlantirish hamda ushbu sohalarda ilm-fanni rivojlantirishga ko'maklashishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi “Turizm, madaniy meros va sport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmonida “yoshlar o'rtasida sport bilan shug'ullanishni ommalashtirish, ommaviy sport turlari va sog'lom turmush tarzini yuritishga keng jalb etish borasida keng ko'lamli ishlarni tashkillashtirish, turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishga jalb etish, sport ta'limi tizimini takomillashtirish”¹ borasida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o'quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanishni rivojlantirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son “O'zbekiston Respublikasida turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”,

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm, madaniy meros va sport sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” 2022-y, 18-fevraldagi Farmoni.

2021-yil 6-apreldagi PF-6199-son “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 6-apreldagi PQ-5054-son “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta‘limni rivjlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy shakllantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda sport, turizm va jismoniy tarbiya bo‘yicha R.S.Salomov, B.G.Boyboboyev, S.Mirzayev, J.Eshnazarov, E.A.Turdiqulov, M.R.Usmonov, X.N.Jumayev, A.E.Isimov kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ta‘lim-tarbiya jarayonida ekologik-gigiyenik tarbiyalash, turizm, sayyohlik-o‘lkashunoslik tadbirlarini tashkil etishning ilmiy muammolari bilan N.Tuxliyeva, T.Abdullayeva, B.G‘.Qo‘chqorov, M.A.Ravshanov, B.X.Kamalov, E.Yu.Daurenov, M.A.Azizova² boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida olimlardan N.F.Reymers, E.D.Makarov, A.N.Zaxlebniy, I.D.Zverev, I.T.Suravegina, A.B.Losev, G.G.Provadkin, V.V.Stolbov³ kabi olimlar sport va turizmning inson fiziologiyasiga ta‘sirini tadqiq etganlar.

² Саломов Р.С. Проблемы высшего физкультурного образования, моног.- Т., 1992. – 85 с.; Boyboboyev B., Mirzayev S., Jalilov A. Turistik rohdardagi gigiyenik va tibbiy ta‘minot.-Namangan: “Namangan” nashriyoti, 1993.-33b.; Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sportni boshqarish: O‘quv qo‘llanma. - Samarqand, 1994, - 19 b.; Turdiqulov E.A. Tabiatni seving va ardoqlang. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2000. – 16 b.; Usmonov M.R., Jumaev X. N. Landshaft rekreatsiya tizimli xaritanani yaratish masalalari // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 23-jild.-Toshkent, 2003. –B. 66-67.; Isimova A.E. Darsdan tashqari ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogic shart-sharoitlari (V-IX sinflar misolida). Ped. fan. nom...diss. (13.00.01). – Т. 2005. – 212 b.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организатсия бизнеса в туризме Узбекистана. -Тошкент: Чинор, 2006. -18 с.; Qo‘chqorov B.,G‘. va boshq. Sayohatni tashkil qilish: O‘quv-metodikqo‘llanma. -Т.: “ILM ZIYO”, 2008, - 96 b.; Umaraliyev Sh.T. Iqtisodiyot va turizm turlariga umumiy tarif // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. - Namangan, 2011. –B. 97.; Ravshanov M.A., Kamolov B.X. Yangiqo‘rg‘on tumanidagi dam olish maskanlari va ularning aholiga xizmat ko‘rsatish darajasi // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. -Namangan, 2013.–B.76.; Daurenov E.Yu. Turizm: Darslik.-Toshkent, 2020. – 192 b.; Azizov M.A. Sport turizmi tadbirlarida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni rivjlantirishning pedagogic mexanizmlari.(RhD) diss. - Namangan, 2022.-14 b.

³Реймерс Н.Ф. Охрана природы окружающей человека среды.- Словар-справочник.- М.: Просвещение, 1992. -320 с.; Макаров Е.Д. Педагогические основы формирования туристической культуры учащихся якутской школы. Автореф. дис... кан. пед. наук - Якутск, 1994.- 19 с.; Захлебный А.Н., Зверев И.Д., Суравегина И.Т. Охрана природы в школьном курсе биологии. М.: “Просвещение”, 1997. -207 с.; Зверев И.Д. Что такое экотуристическая культура колников. // Семья и школа. -1999. №-10. - с. 16-19.; Лосев А.В., Провадкин Г.Г. Социальная туризма: Учеб.пособие для вузов // Под ред. В.И.Жукова - М.: Владос, 1998. -312 с.; Столбов В.В., История физической культуры и спорта. Учебник. М.: “ФИС”, 2000.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan H.J.Gibson, J.Kurtzman, J.Zauhar, M.Perić, G.R.Taleghani, A.Ghafary, M.Weed, C.Bull, J.Higham, T.Hinch, G.Zarotis⁴ kabi olimlar tomonidan sayohatlarni tashkil qilish va atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish masalalarini o'z tadqiqotlarida yoritib o'tganlar.

Biroq o'quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanish muammosi maxsus tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan. Bu esa, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I-2017-1-14/3-raqamli "O'quvchi-yoshlar uchun olimpiya ta'limining samarali tizimini yaratish" mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanishning nazariy hamda metodologik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

Talabalarining bilim, ko'nikmalarini shakllantirish, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari va turizm faoliyati kompetensiyalarini tavsiflovchi mezonlarni ishlab chiqish;

o'quv dala amaliyoti davomida talabalarining jismoniy imkoniyatlari ekstremal va sport turizmi turlari bilan bog'liq tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tishga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish;

oliy o'quv yurtlari tabiiy fanlar yo'nalishi 1-2-bosqich talabalari uchun tashkil etilayotgan o'quv dala amaliyoti modeli dasturini ishlab chiqish va pedagogik tajribada samaradorligini asoslash;

o'quv dala amaliyotida talabalarga sayohat turlarini tanlashni o'rgatish, tanlangan marshrut bo'yicha ekologik muhitga befarq bo'lmaslik ko'nikmasini shakllantirish hamda musobaqalarni maqsadli tashkil etish usullarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetin i o'quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanishning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy (qiyosiy, tahliliy), diagnostik (kuzatish, suhbat, so'rovnom), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil, umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

⁴Gibson H. J. Sport tourism: a critical analysis of research //Sport management review. – 1998. – T. 1. – №. 1. – C. 45-76.; Kurtzman J., Zauhar J. Sports tourism consumer motivation //Journal of Sport Tourism. – 2005. – T. 10. – №. 1. – C. 21-31.; Perić M. Sports tourism and system of experiences //Tourism and hospitality management. – 2010. – T. 16. – №. 2. – C. 197-206.; Taleghani G. R., Ghafary A. Providing a management model for the development of sports tourism //Procedia-Social and Behavioral Sciences. – 2014. – T. 120. – C. 289-298.; Weed M., Bull C. Sports tourism: Participants, policy and providers. – Routledge, 2012.; Higham J., Hinch T. Sport tourism development. – Channel view publications, 2018. – T. 84.; Zarotis G. Development of sports tourism //International Journal of Humanities and Social Science Invention. – 2019. – T. 8. – №. 6. – C. 01-07.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Talabalarning jismoniy chidamlilikka asoslangan sport va ekstremal turizm turlari bo'yicha bilim, ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodikalar mashg'ulot mazmunini rejalashtirish, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari va turizm faoliyati kompetensiyalarini tavsiflovchi mezonlar asosida takomillashtirilgan;

o'quv dala amaliyoti davomida talabalarning jismoniy imkoniyatlari ekstremal va sport turizmi turlari (speleoturizm, spelestologiya, trekking, tog' turizmi, ot turizmi) bilan bog'liq tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tishga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etish asosida rivojlantirilgan;

tabiiy fanlar yo'nalishi 1-2-bosqich talabalari uchun o'quv dala amaliyoti dasturlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan pedagogik talablarga mos ravishda ekstremal sharoitlarda o'quv dala amaliyotlarini tashkil etishning pedagogik modeli talaba yoshlarda ekstremal vaziyatlarga moslashuvchanlik o'quv tadqiqot ishlarini olib borish (jamoaviy harakatlanish, tog'larda, daryo vodiylarida, terrasalar)da zamonaviy geoinformatsion sistemalar bilan birgalikda mahalliy tabiiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari takomillashtirilgan;

turistlarni tayyorlash sohasidagi individual ta'limni tashkil etish metodikasiga asoslanib, talabalarga sayohat turlari(madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, agroturizm) ni tanlashni o'rgatish, dala amaliyotida turli yo'nalishdagi jismoniy yuklamalar o'lchamlari va musobaqa faoliyati natijalarini baholash usullari rivojlantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'quv dala amaliyotida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanishning nazariy-metodologik asosi o'rganilgan va ilmiy tarifi zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilingan;

ekstremal va sport turizmni turlarini o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik asoslari yuzasidan innovatsion tavsiyalar ishlab chiqilgan;

talabalarning o'quv dala amaliyoti davrida turizm turlalaridan maqsadli va rejali foydalanishining samaradorlik ko'rsatkichlari takomillashtirilgan va ilmiy-pedagogik metodikasi ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv dala amaliyotlarida ekstremal va sport turizmidan foydalanishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotning metodologik bazasini ta'minlanganligi, olingan nazariy va amaliy ma'lumotlardan foydalanilganligi, olingan empirik miqdorlar matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning o'quv dala amaliyotida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanishning mohiyati, mazmuni va uning nazariy-amaliy asoslari ochib berilganligi, talabalarning sport turizmi va sport tadbirlarida ekologik madaniyatini rivojlanganlik ko'rsatkichlariga asoslanganligi, inson salomatligini saqlash, tabiatni muhofaza qilish kabi integratsiya jarayonlarida qayta

aloqani ta'minlash bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'quv dala amaliyotida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanish jarayonlarida turizmga oid bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, sport turizmini tashkil etish shakl va usullarining modifikatsiyalanganligi, o'quvchilar o'rtasida ekstremal sport turlaridan foydalanishda ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga asoslangan sport musobaqalarini o'tkazilganligi hamda tadqiqot jarayonida olingan natijalardan talabalar uchun "O'quv dala amaliyotida ekstremal va sport turlaridan foydalanish" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmada aks etganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. O'quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanishning nazariy metodologik asoslari yuzasidan olingan natijalar asosida:

Talabalarning jismoniy chidamlilikka asoslangan sport va ekstremal turizm turlari bo'yicha bilim, ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan, mashg'ulot mazmunini rejalashtirish, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari va turizm faoliyati kompetensiyalarini tavsiflovchi mezonlar asosida takomillashtirilgan metodikalardan Namangan davlat universitetida bajarilgan "O'quvchi yoshlar uchun olimpiya ta'limining samarali tizimini yaratish" nomli grant loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2062/04-sonli va Namangan viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 19-iyundagi 02-04-207-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, o'quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanishning nazariy metodologik asoslarini o'rganilish va tahlil qilish samaradorligi oshgan;

o'quv dala amaliyoti davomida talabalarning jismoniy imkoniyatlari ekstremal va sport turizmi turlari (speleoturizm, spelestologiya, trekking, tog' turizmi, ot turizmi) bilan bog'liq tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tishga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etish asosida rivojlantirilgan tavsiyalardan Namangan davlat universitetida bajarilgan "O'quvchi yoshlar uchun olimpiya ta'limining samarali tizimini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2062/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv yilining so'ngida tashkil etiladigan o'quv dala amaliyotlariga tayyorgarlik ko'rishning pedagogik xususiyatlarini o'rganish imkoni kengaytirilgan;

tabiiy fanlar yo'nalishi 1-2-bosqich talabalari uchun o'quv dala amaliyoti dasturlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan pedagogik talablarga mos ravishda ekstremal sharoitlarda o'quv dala amaliyotlarini tashkil etishning pedagogik modelitalaba yoshlarda ekstremal vaziyatlarga moslashuvchanlik o'quv tadqiqot ishlarini olib borish (jamoaviy harakatlanish, tog'larda, daryo vodiylarida, terrasalar) da zamonaviy geoinformatsion sistemalar bilan birgalikda mahalliy tabiiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha ishlangan tavsiyalardan Namangan davlat universitetida bajarilgan "O'quvchi yoshlar uchun olimpiya

ta'limining samarali tizimini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2062/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalar tomonidan o'quv dala amaliyoti davrida joy nomlarini aniqlashning uzviyligi va uzluksizligini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

turistlarni tayyorlash sohasidagi individual ta'limni tashkil etish metodikasiga asoslanib, talabalarga sayohat turlari (madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, agroturizm)ni tanlashni o'rgatish, dala amaliyotida turli yo'nalishdagi jismoniy yuklamalar o'lchamlari va musobaqa faoliyati natijalarini baholash usullarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tavsiyalardan Namangan davlat universitetida bajarilgan "O'quvchi yoshlar uchun olimpiya ta'limining samarali tizimini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2062/04-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv dala amaliyotini mazmunli o'tkazishning amaliy asoslarini yanada rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Olib borilgan mazkur ilmiy tadqiqot natijalari, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 6 ta respublika miqyosidagi va 1 ta xorijiy jurnallarida chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, 8 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 102 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'quv dala amaliyotida turizm turlaridan foydalanishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ta'lim sifatini takomillashtirishda o'quv dala amaliyotlarining o'ziga xos xususiyatlari, turizm turlariga qo'yiladigan talablarning zamonaviy tasnifi, o'quv dala amaliyotiga tayyorgarlik ko'rishning metodologik asoslari va uning mazmun-mohiyati yoritilgan. Yangi O'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimi va bosqichlarini istiqbolli rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada

oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun amaliyot bosqichlarini o'tkazishi darkor. Oliy o'quv yurtlarining tabiiy fanlar va ijtimoiy gumanitar yo'nalishlarida 1-2-kurslarida o'tkaziladigan o'quv dala amaliyotining maqsadi, vazifalari yo'nalishlar kesimida tuzilgan o'quv rejalar va fan dasturlariga o'rni, pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda ilmiy-nazariy manbalar izohlab o'tilgan.

Ma'lumki, o'quv dala amaliyotlari har qanday mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bu talabaga tanlagan kasbi bo'yicha o'zini amalda sinab ko'rish, nazariy mashg'ulotlarda olgan bilimlarini kasbiy faoliyatda qo'llashni o'rganish imkonini beradi. Birinchi kursning yakunida o'quv dala amaliyotlari sayohatlar shaklida o'tkazilib, muayyan marshrutlarda tashkil etilayotgan amaliyot shakllari o'quv tadbirlarining shakllantirish omillari tahlil qilingan.

Shuningdek, ushbu bobda turizmning turlari, ekstremal va sport turizmining o'ziga xosligi va talabalarning o'quv dala amaliyotlari turizmning ayrim turlari bilan uzviy bog'liqligi, masalan, amaliyot davrida talabalar tabiiy to'siqlarni bartaraf etish uchun dastlab, tog' daralaridagi o'tish yo'llarida avtotransport turlaridan foydalanishi lozimligi, turli sharoitda o'sadigan florani o'rganish uchun tabiiy g'orlarda gerbariylar to'plashi yoki tog' daralari orasidan piyoda o'tishlari talab etiladi va bu talabalarning jismoniy tayyorgarligi yuqori bo'lishini talab etadi. Ma'lumki, quyi kurslarda o'quv dala amaliyotlari turistik ekspeditsiya shaklida tashkil etilib, hududlarni tabiiy geografik jihatdan o'rganish, mavjud o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishish, gerbariylar to'plash, tabiat manzaralarini chizish bilan birga talabalarga ekstremal va sport turizmidan foydalanish va sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, sport turizmi mazmuni kamolot, tarbiya madaniyati, sport ishlari, jismoniy ma'lumot tushunchalarida o'z ifodasini topadi. Sport turizmi marshrutlar, masofalar va turistik sport sayohatlari shaklida tashkil etilib, sayohatlar, ekskursiyalar, shu jumladan, tabiiy to'siqlarni yengib o'tishni ta'minlaydigan sayyohlik yo'nalishlarini piyoda bosib o'tishni nazarda tutadi. Uning turlari quyidagilar: trekking: vaqtinchalik turar joy xizmatlari bilan piyoda yurish; chang'i turizmi: chang'i bilan sayyohlik yo'nalishlarini, shu jumladan, tabiiy to'siqlarni (dovonlar, cho'qqilar va ularning shpallari va boshqalar) yengib o'tish; tog' turizmi: tog' dovonlari, cho'qqilar, muzliklar va boshqalarni bosib o'tish, o'rta va baland tog'li hududlarda tog' yo'llarini piyoda bosib o'tishni o'z ichiga olgan sayohatlar; suv turizmi: turli xil qotishma vositalarida (katamaranlar, raftlar, puflanadigan qayiqlar (raftlar, baydarkalar, baydarkalar va boshqalar)da to'siqlarni (rulolar, rapidlar, rapidlar kaskadlari, kanyonlar, daralar) yengib, tekislik va tog' daryolari bo'ylab rafting bilan suv yo'llarini bosib o'tishni o'z ichiga oladigan sayohatlar, ekskursiyalar; avtomototurizm va velosiped turizmi: tekis va tog'li hududlarda tegishli transport vositalari - velosiped, avtoulov, mototsiki, qor mototsikli va boshqalarda sayohat qilish; speleoturizm (speleologik turizm): ta'lim yoki sport maqsadlaridan tabiiy g'orlarga uyushtiriladigan ekspeditsiyalar, sayohatlar va ekskursiyalar; spelestologiya: sun'iy kelib chiqadigan yer osti tuzilmalari bo'ylab sayohatlar va ekskursiyalar; ot turizmi: tekis

va tog‘li hududlarda otda yurish uchun mo‘ljallangan sayohatlar, ekskursiyalar; karvon: tuya, ot, it chanasi va boshqalarda sayohat, piyoda yurish va ekskursiyalar.

Talabalarning dala amaliyotlari kombinatsiyalangan turizm bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatibir nechta ekstremal va sport turizmiga xos bo‘lgan joylarda sayyohlik yo‘nalishlarini bosib o‘tilishi va shu jarayonda ta‘lim-tarbiya va o‘quv faoliyatini amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi.

Mazkur bobda tal‘im sifatini takomillashtirishda o‘quv dala amaliyotlarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan bo‘lib, oliy ta‘lim muassasalarining tabiiy va ijtimoiy fanlar ta‘lim yo‘nalishlarida tashkil etiladigan o‘quv dala amaliyotlarining nazariy metodologik asoslari, tog‘ va tog‘ oldi hududlariga chiqishdan oldin talabalar bilan o‘tkaziladigan jismoniy mashg‘ulotlar, ekstremal va sport turizmi vositasida talabalarda jismoniy chidamlilikni oshirishning o‘ziga xosligi o‘rganildi hamda talabalarning qiziqishini inobatga olib, dala kuzatuv ishlari jarayonida tuziladigan kichik guruhlar kesimida jismoniy tayyorgarlik mashqlarini tashkil etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Turizm turlariga qo‘yiladigan talablarning zamonaviy tasnifi, o‘quv dala amaliyotining davomiyligida turizmning bir nechta turlaridan xususan, speleoturizm, spelestologiya, trekking, tog‘ turizmi, ot turizmiga xos bo‘lgan jihatlar: balandlik mintaqalari bo‘ylab piyoda yurish, suv obyektlaridan o‘tish, velosiped, avtomobillarning ayrim turlaridan xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda foydalanish yuzasidan umumiy qoidalarga rioya qilish talablari takomillashtirildi. Bu jarayonda talabalar tomonidan yo‘lni bosib o‘tishda o‘zi bilan olinadigan barcha jihozlar to‘plami og‘irligi, talabalarning fiziologik yosh tuzilmasi, og‘irlik darajasi o‘g‘il yoki qizlarning individual xususiyatlari va amaliyot uchun tayyorlagan mulk to‘plamining nazariy asoslari ochib berilgan. O‘quv dala amaliyotlariga tayyorgarlik ko‘rishning o‘ziga xos xususiyatlari o‘quv jarayonining dala sharoitidagi bevosita davomi bo‘lganligi sababli talabalarning jismoniy texnik tayyorgarliklarini sinab ko‘rish maqsadida o‘tkaziladigan jismoniy mashqlar (turnikda tortilish, yotgan holda tayanib qo‘lni bukib yozish, arqonga osilib chiqish, psixodiagnostik mashqlar, kross tayyorgarligi) bilan qo‘shib olib borishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan.

O‘quv dala amaliyotining davomiyligida turizmning bir nechta turlaridan xususan, balandlik mintaqalari bo‘ylab piyoda yurish, suv obyektlaridan o‘tish, velosiped, avtomobillarning ayrim turlaridan xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda foydalanishlari mumkin. Piyoda yurish jarayonida talabalarning belgilangan yo‘nalish bo‘yicha bevosita piyoda yurishi tushuniladi. Bunday paytlarda qoida va shartlar asosida kerakli jihozlar va oziq-ovqatlarni sayohatchilar o‘zlari bilan olib yuradilar. Tog‘ turizmi turizmning o‘ziga xos turi bo‘lib, qoidalariga asosan sohaga oid qonuniyatlar asosida tashkil qilinadi. O‘zbekistonning hamma viloyatlarida ma‘lum darajada turistik jihatdan birinchi kategoriya qiyinchiliklaridagi tog‘lar mavjud. Piyoda va tog‘ turizmini aralash uyushtirishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, turistlar tog‘ zonalarida yurish tartibini to‘la bilishlari, kerakli jihozlarni jamg‘arishlari tunash, yurish, yashash qoidalarini talabalar yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishlari zarur. Ular asosan bir kunlik dam olish va ko‘pkunlik sayohatlar shaklida tashkil qilinadi.

Talabalarda jismoniy mehnat malakasi ham shakllanib, amaliyot davomida yuk ko‘tarish, turli to‘siqlardan o‘tish, kechalari tunash uchun joy tayyorlash, ovqat pishirish uchun o‘tin to‘plash, dam olib va tunab o‘tgan joylarni tartibga keltirish, oyoq kiyimlarini doimo yaxshi saqlash va boshqa juda ko‘p amaliyot bilan bog‘liq bo‘lgan kundalik yumushlarni bajarishlariga to‘g‘ri keladi. Bu jarayonlar esa har bir talabadan mehnatsevarlik va uyushqoqlik kabi fazilatlarni talab qiladi. Amaliyot davrida talabalar jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori natijalarga erishish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish, ularning funksional va irodaviy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“O‘quv dala amaliyotlarida talabalar faoliyatini rivojlantirishning metodik ta‘minoti”** deb nomlangan ikkinchi bobida ekstremal va sport turizmini o‘quv dala amaliyotlari bilan bog‘liq jihatlari Namangan viloyatining Pop, Yangiqo‘rg‘on va Chortoq tumanlari misolida tahlil etilgan (1-jadvalga qarang).

60710400-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan o‘quv dala (malakaviy) amaliyotida talabalar ekotizimlar va tabiiy obyektlar bilan tanishish, o‘lkamiz tabiati, aholisi va uning urf-odatlarini, turli tabiiy resurslar, suv, atmosfera, o‘simlik va hayvonot dunyosi, ekologik jarayonlar va hodisalar, o‘lkamiz landshaftlari, shuningdek, hududlarning rekreatsion salohiyati va xo‘jaligini kompleks o‘rganish maqsadida Pop, Yangiqo‘rg‘on va Chortoq tumanlari jadvalida keltirilgan turizm zonalari va tabiiy ekotizimlariga ekskursiya va sayohatlar uyushtirilishi belgilangan. Mana shu jarayonda talabalarning jismoniy tayyorgarligi o‘quv dala amaliyotini samarali tashkil etishning muhim shartiga aylanadi.

1-jadval

Pop, Yangiqo‘rg‘on va Chortoq tumanlari o‘quv dala amaliyotlarida sport va ekstremal turizmdan foydalanishga mo‘ljallangan obyektlar va ularning imkoniyatlari

T/r	Ma‘muriy birliklar	Turistik obyektlar nomi vasoni	Xizmat ko‘rsatish va servis imkoniyatlari
1.	Pop tumani	Chodak, Oltinkon, Parda Tursun, Chorkesar, Adaniyat, Arashonbuva, Munchoqtepa, Oqtepa, Ismoil Atoyi, Xo‘jaobodtepa, Bulgadar, Langar, G‘urumsaroy, Chirchirmom o, Guzar, jami 15 na turistik obyekt	Talabalar bir vaqtni o‘zida turizmning rekreatsion, shoring va rafting turlaridan foydalanadi. Qurama tog‘ining etaklarida esa sport va ekstremal turlarini yo‘lga qo‘yish lozim.
2.	Chortoq tumani	Chortoq dam olish maskani, Buloqboshi, Bibi Naima, Sulton Said Jaloliddin, Sadamozor, Alkomacha jami 6 taturistik obyekt	Tuman geografik joylashuviga ko‘ra adir va adir orti hududlaridan iborat bo‘lib, dam olish va davolanish maskanlari mavjudligi bilan harakteplanadi. Hududdan oqib o‘tuvchi Chortoqsoy havzasida turizmning ekstremal va sport turlarini rivojlantirish tavsiya etiladi.

1-jadval davomi

3.	Yangiqo‘rg‘on tumani	Mamay, Ko‘kyor, Nanay, Podshoota, Qo‘rg‘ontepa, Sherqurbonvaliy, Zo‘rtepa, Otaxontepa, Jo‘lontepa, Qorapolvon, Boboyax, Qizilyozi, Turkiston, Oqsuv, Daryo bo‘yi, jami 15 taturistik obyekt	Rodsho-Ota suv havzaning o‘ng va char irmoqlarida joylashgan Nanay va Mamay hududidagi dam olish maskanlari tumanda joylashganligi bilan harakteplanadi. Tog‘ va tog‘oldi hududlarida turizmning sport, ekstremal, ekoturizm va rafting turlaridan foydalanish imkoniyatiga ega.
----	-----------------------------	--	--


Xususan, talabalar bilan tabiat qo‘yniga uyushtiriladigan maqsadli marshrutlarda dala kuzatuv ishlarini olib borishda jismoniy chidamlilik bilan birga joy nomlarini aniqlashdagi kuzatuv ishlari, topografik kartalarning marshrutlarga yo‘naltirilganligi, joy xaritasini o‘rganish, kompas yordamida azimut bo‘yicha yurish, osmon jismlariga qarab joy nomlarini aniqlash, xarita bilan ishlash qoidalari, reja bo‘yicha maydon va uzunlikni o‘lchash, joyda belgilangan nuqta va yo‘nalishlarni aniqlash, topografik plan olish, ko‘z bilan chamalab masofa aniqlash, nuqtalarni belgilash, chamalash va belgi qo‘yib ketish usullaridan foydalanilish metodlari ushbu bobda tahliliy o‘rganilgan.

Belgilangan marshrutlarda talabalar o‘quv dala amaliyotining mazmunli tashkil etish, guruhlardagi ishtirokchi talabalar yo‘lga chiqish oldidan tayyorgarlik jarayonlarida o‘zlari o‘tadigan yo‘llar, so‘qmoqlar va manzillarni mavjud bo‘lgan xarita va chizmalarni o‘qish, sohaga oid bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan. O‘quv dala amaliyotida ishtirok etayotgan talabalarning sport mashg‘ulotlariga qiziqtirish, amaliyot davrida sport bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan jismoniy, ta’limiy va tarbiyaviy tizim takomillashtirilgan. Tadqiqot doirasida o‘quv dala amaliyotida ishtirok etayotgan talabalar faoliyatini metodik jihatidan rivojlantirishning asosiy komponenti sifatida maqsadga yo‘naltirilgan, mazmunli, faoliyatga doir va natijaviy tarkibiy asoslarga tayanib, o‘quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanishni takomillashtirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).

Mazkur model oliy ta’lim muassasalarining quyi kurs talabalarida ekstremal va sport turizmiga oid tushunchalarni aniqlashtirishni va ko‘zda tutib, talabalar faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik ta’lim-tarbiya jarayonlari samaradorligini ta’minlashda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish metodlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ifodalaydi. Loyihalana yotgan modelning kutiladigan natijasi sifatida turizm turlariga (ekstremal va sport turizm) oid bilim, ko‘nikmalari va intellektual qobiliyatlarini takomillashtirish hamda talabalarni motivatsion sifatlarini shakllantirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Modelni amalga oshirishning asosiy bosqichlari sifatida didaktik, metodik-modellashtirish va diagnostik belgilandi.

Suningdek, ushbu bobda dala amaliyoti davomida uzoq yurib charchash, ob-havo ta’sirida ayrim talabalarda shamollash, yo‘talish, isitma chiqarish, bosh yoki qorin og‘rig‘i paydo bo‘lish holatlarida jarohatlangan talabalarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari tahlil etilgan. Talabalarning yoshi, jismoniy tayyorgarligiga qarab topshiriqlarni berish, ularga doimiy ravishda o‘z sog‘ligini nazorat qilib borish, amaliyot davrida talabalarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maqsad: O'quv dala amaliyotlarida turizmning ekstremal va sport turlaridan foydalanish



1-rasm. O'quv dala amaliyotlarida ekstremal va sport turizmidan foydalanishni takomillashtirishning pedagogik modeli

Talabalarning amaliyot davrida gigiyena qoidalariga rioya qilishi va to'g'ri ovqatlanish yuzasidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda dala amaliyotlarini tashkil qilishdan avval qatnashuvchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi o'rganilishi maqsadga muvofiq, chunki talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari mazkur poxodga ruxsat berish yoki bermaslikni aniqlash va amaliyot marshrutlarni to'g'ri tanlashga yordam beradi. Talabalar guruhininhg umumiy sog'lig'i, kuch sifatlari va chidamliligi jihatdan bir xil bo'lishiga etibor qaratish lozim. Vrach nazoratida ekstremal va sport turizmiga monelik qiladigan asosiy kasalliklar (yurak qon tomir tizimida, o'pka, me'da-ichak kasalliklar)dan tashqari yurish vaqtida xalaqit beradigan qadoq, shilinish, chiqqan kabi kasalliklarni ham inobatga olish talab etiladi. Teri kasalligi bilan og'rikan shaxslarni guruhlarga kiritib bo'lmaydi.

Belgilangan yo'nalishdagi marshrutlarda – epidemiologik baho berishda yo'ldagi botqoqliklarga e'tibor berish kerak, chunki undagi hasharotlar (pashsha va anofels chivinlari) bezgak kasalligini tarqatish mumkin. Amaliyot davrida ehtiyotsizlik oqibatlarida jarohatlanish holatlarining oldini olish, birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning tartib va qoidalarini bilishlari tavsiya etilgan.

